ERKIN A'ZAM ASARLARIDAGI TAKROR TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nomozova Mohichehra Rustamovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktaranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada takror hodisasising Erkin A'zam asarlari misolida badiiy matndagi estetik vazifasi, leksik, sintaktik, turlari va uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakili Erkin A'zam asarlarida takror hodisasining lisoniy tabiati va badiiy-estetik funksiyalari tadqiq etiladi, muallif asarlaridagi leksik, morfologik va sintaktik takrorlarning turlari tahlil qilinib, ularning badiiy matn qurilishidagi o'rni yoritiladi, takrorlar orqali hosil qilinadigan uslubiy joziba (ekspressivlik) o'rtasidagi mutanosiblik ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: *Badiiy matn, takror hodisasi, leksik takror, sintaktik takror, estetik funksiya, uslubiy xususiyat, lingvopoetika, ekspressivlik, individual uslub.*

Аннотация: В данной статье исследуются лингвистическая природа и художественно-эстетические функции феномена повтора в произведениях крупного представителя современной узбекской литературы Эркина Азама. В исследовании анализируются виды лексических, морфологических и синтаксических повторов, характерных для прозы автора, и освещается их роль в построении художественного текста. Также научно обосновывается соразмерность стилистического своеобразия и эмоционально-экспрессивной выразительности, создаваемой посредством повторов. В процессе анализа с лингвопоэтической точки зрения оценивается роль повторов в раскрытии психологии героя и формировании индивидуального стиля автора.

Ключевые слова: *Художественный текст, феномен повтора, лексический повтор, синтаксический повтор, эстетическая функция, стилистическая особенность, лингвопоэтика, экспрессивность, индивидуальный стиль.*

Abstract: This article explores the linguistic nature and artistic-aesthetic functions of the phenomenon of repetition in the works of Erkin Azam, a prominent representative of modern Uzbek literature. The study analyzes the types of lexical, morphological, and syntactic repetitions specific to the author's prose and clarifies their role in the construction of artistic text. Furthermore, the scientific balance between stylistic charm and emotional expressiveness created through repetitions is established. The research linguistically evaluates the contribution of repetitions in revealing the character's psyche and shaping the author's individual style.

Keywords: Artistic text, repetition phenomenon, lexical repetition, syntactic repetition, aesthetic function, stylistic feature, linguopoetics, expressiveness, individual style.

Til tafakkur mahsuli bo‘lishi bilan birga, insonning ichki dunyosi, tuyg‘u va kechinmalarini tashqi muhitga yetkazuvchi asosiy vositadir. Shu bois til unsurlarining mantiqiy va emotsional-ekspressiv qirralarini o‘rganish lingvopoetik tahlil doirasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday vositalardan biri bo‘lmish takror hodisasi til birliklari orasida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat ifodaning kuchayishiga xizmat qiladi, balki matnga emotsional, poetik va estetik ruh bag‘ishlaydi. Til tizimi o‘zining funksional tabiatiga ko‘ra nafaqat axborot uzatish, balki emotsional, ekspressiv, estetika bilan bog‘liq vazifalarni ham bajaradi. Ushbu vazifalar to‘laqonli namoyon bo‘ladigan maydonlardan biri –

badiiy matndir. Badiiy matn til birliklarini keng qamrab oluvchi matn bo‘lganidek, badiiy vositalarga tayanuvchi matn hamdir, shu vositalardan bo‘lgan takror o‘zining ko‘p funksiyali, polisemantik va estetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Takror hodisasi tilda fonetik, morfologik, leksik, sintaktik, semantik va stilistik darajalarda namoyon bo‘ladi. Har bir darajadagi takror turli funksional yukni o‘z zimmasiga oladi: masalan, fonetik takrorlar ohangdoshlikni ta’minlasa, leksik takrorlar ta’sirchanlikni kuchaytiradi, sintaktik takrorlar esa mantiqiy struktura va ritmni barqarorlashtiradi. O‘zbek tilshunosligida “takror” termini ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan. Jumladan, R.Sobirov, M.Qosimova, S.Usmonovlar bu hodisani nutqiy ekspressivlik vositasi sifatida baholaganlar. Ularning fikricha, takror yordamida gap mazmuni kuchayadi, obrazli ifoda yuzaga keladi va so‘zlovchining emotsional holati aks ettiriladi.[3] G‘arb tilshunosligida esa R. Yakobson takrorni tilning poetik funksiyasini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ta’kidlaydi.[5]

Badiiy nutqda takror hodisasi til birliklarining matn sathida muayyan estetik maqsad asosida qayta-qayta qo‘llanilishidir. Erkin A’zam ijodida takrorlar shunchaki uslubiy bezak emas, balki asar g‘oyasini kitobxon ongiga singdirishning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, takrorlar yordamida muallif nutqning emotsional haroratini oshiradi va qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni ifodalaydi.

Leksik takrorlar Erkin A’zam asarlarida eng ko‘p uchraydigan tur bo‘lib, u so‘zning ma’no qirralarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ta’kid vazifasi: Muallif biror tushunchaga e’tiborni qaratish uchun uni ketma-ket qo‘llaydi. Masalan "Lekin – ko‘ngli !.. E, bu bir boshqa dunyo ekan. **Ko‘ngil** – podsho. **Ko‘ngil** - xazina. **Ko‘ngil** – balo” “Pakananing oshiq

ko'ngli"qissasidan olingan ushbu misolda personajning ikkilanishi yoki hayratini ifodalashda bitta so'zning bir necha bor takrorlanishi "so'zning yukini" oshirgan. Ushbu parchada leksik takrorning eng faol turi bo'lgan anafora (gap boshidagi takror) hodisasi kuzatiladi. Muallif "ko'ngil" tushunchasini ijobiy "podsho", "xazina" tushunchalardan kutilmagan salbiy "balo" tushunchaga qarab darajalantiradi. Bu orqali yozuvchi "Pakana" obrazining ruhiy holati qanchalik murakkab va ziddiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Ekspressivlik: Adib asarlaridagi so'z takrorlari nutqqa jonlilik bag'ishlab, kitobxonda personaj bilan jonli muloqot qilayotganlik hissini uyg'otadi. Masalan: "Hamma bunaqalarga yarim **odam**, chala **odammi-ey** degandek bepisand munosabatda bo'ladi. Qisqasi, **odam** hisobida yo'qdek." Bu misolda asar qahramoning jamiyatdagi o'rni va ichki ziddiyatlari takror hodisasining mahorat bilan ishlatilishi natijasida ochib berilgan. Gapda **"odam"** so'zining takrorlanishi markaziy o'rin tutadi. Bu shunchaki so'z qaytarig'i emas, balki inson qadr-qimmati tushunchasining darajalanishidir. Bu yerda sifatlovchi so'zlar orqali personajning jismoniy kamchiligi (pakanaligi) uning insoniy mohiyatiga nisbat berilmoqda. Bu leksik birliklar jamiyatning pakanalarga nisbatan g'ayriinsoniy va kamsituvchi qarashini ifodalaydi. **"Odam hisobida yo'qdek"** birikmasi takrorning mantiqiy yakuni bo'lib, personajning jamiyatdan to'liq begonalashganini, uning borligi inkor etilayotganini ko'rsatadi.

Erkin A'zam jumlalari o'ziga xos ohangga ega. Bu ohang ko'p hollarda bir xil turdagi sintaktik qurilmalarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu esa nasriy matnga she'riyatga xos joziba va mantiqiy izchillik bag'ishlaydi. Takror badiiy matnda mazmun mukammaligini ta'minlab, estetik-funksional vosita sifatida amal qiladi. U muallifning emotsional-estetik niyatini kuchaytiradi, matnga

musiqiylik va ritmik uyg'unlik bag'ishlaydi, obrazlarni jonlantiradi hamda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Shu bois takror san'ati tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur ilmiy tahlilni talab etadigan muhim hodisadir. Sintaktik stilistik takror badiiy matnning struktur-semantik tashkilini barpo etishda asosiy poetik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu hodisaning mohiyati shundaki, muayyan sintaktik qoliplar, konstruktsiyalar yoki gap bo'laklari izchil takrorlanish orqali matnning ritmik, kompozitsion va emotsional qatlamlarini kuchaytiradi. Tilshunos olimlar Metlyakova, Vasilyeva, Denisova, fikrlariga ko'ra, sintaktik takror matn semantikasini mazmuniy jihatdan mustahkamlab, uni o'quvchi idrokiga yo'naltirishning eng samarali vositalaridan biridir.[1] Takrorning sintaktik darajada kuzatilishi uning stilistik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi: leksik birliklar takrorlanishi ko'proq ma'no va urg'u yaratishga xizmat qilsa, sintaktik konstruksiyaning takrorlanishi butun matnning ritmiga, ohangiga va strukturasiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Метлякова Е. В. Лексический повтор как семантико-стилистическая категория организации лирического текста в раннем творчестве Анны Ахматовой: дис. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 185 с.
2. Васильева Н. А. Структурная организация фольклорных текстов. – М.: Наука, 2004. – 240 с.
3. Денисова Е. В. Стилистические функции повтора в современном художественном тексте. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2018. – 152 с.
4. Шофқоров А. М. Ўзбек тилда бадиий такрор. – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 176 с.

5. Якобсон Р. Работы по поэтике / Пер. с англ. и фр. яз. – М.: Прогресс, 1987. – 456 с.
6. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006. – 320 b.
7. Mamajonov Z. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Universitet, 2010. – 240 b.
8. Rasulov R. Hozirgi o‘zbek tili: Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent: Fan, 2012. – 280 b.
9. Karimov S. Badiiy matn stilistikasi. – Toshkent: Universitet, 2018. – 215 b.
10. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1971. – 320 с.
11. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 138 с.
12. 6. Асқарова Ш. К. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари: филол. фан. бўйича PhD диссертация автореферати. – Тошкент.
13. 7. Асқарова Ш. К. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари: филол. фан. бўйича PhD диссертация автореферати. – Тошкент: Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, 2019. – 49 б.